

Paxtachi tumanida 2025 yil yoshlar muammolarini hal qilish, ularni bandligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

HISOBOT

Paxtachi tumani hududida **51 ta** mahallalarda, 0-30 yosh **73 587 nafar yoshlar** (shundan 14-30 yoshdagilar **40 195 nafar yoshlarni** tashkil qilmoqda.

Ma'lumot uchun: “Yoshlar balansi” asosida **40 195 nafar** yoshlarning (14-30 yosh). **35 215 nafari** (87.6% foizi) “yashil”, **4 651 nafari** (11.5% foizi) “sariq”, ularning **507 nafarini** (1.4% foizini) “qizil” toifadagi yigit-qizlar tashkil etadi.

I. Og'ir toifa yo'naliishi:

Ushbu **507 nafar** qizil toifadagi **156 nafari** xulq-atvorida o'zgarishi bor yoshlarni huquq-tartibot organlarining **19 nafar** rahbarlari (*prokuratura, IIB, FVB, adliya*)ga biriktirilgan bo'lsa qolgan **351 nafar** “og'ir” toifadagi (ishsiz yoshlar) yoshlar tuman hokimi, o'rinnbosarlari hamda davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlarning **15 nafar** rahbarlariga biriktirildi.

Xulq-atvorida o'zgarishi bor **156 nafar** yoshlar toifalari:

- Profilaktik hisobda turgan yoshlar – **27 nafar**
- Probatsiya xisobida turgan yoshlar – **73 nafar**
- Muntazam dars qoldiruvchilar – **1 nafar**
- Surinkali spirtli ichimlik ist'yemol qiluvchilar – **2 nafar**
- Oilaviy ajrim yoqasidagi yosh oilalar – **4 nafar**
- Qimor va tavakkalchilikga asoslangan o'yinlarga rujuv qo'yganlar – **1 nafar**
- JIYeM dan chiqan sudlanganlik muddati to'gamagan yoshlar – **11 nafar**
- Agressev hulq-atvordagi yoshlar – **45 nafar**

Ushbu yoshlarning **11 nafari Prokuraturaga** (2 nafar rahbarga), **42 nafari Tuman favqulodda vaziyatlar bo'limiga** (5 nafar rahbarga), **83 nafari Tuman Ichki ishlar bo'limiga** (7 nafar rahbarga), **20 nafari Tuman Adliya bo'limiga** (5 nafar rahbarga) otaliqqa biriktirilgan.

“Og'ir” toifadagi **351 nafar** (ishsiz yoshlar) yoshlar bilan biriktirilgan rahbarlar tomonidan uchrashuvlar o'tkazilib, yoshlarni ishga joylashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, **351 nafar** ishsiz yoshlarning **351 nafariga (100%)** amaliy ko'maklar ko'rsatilib toifadan chiqarildi:

- **202 nafarini (57.5%)** rasmiy band qilishda,
- **10 nafarini (2.8%)** muddatli bir yillik harbiy-xizmatga yuborishda,
- **83 nafariga (23.6%)** tadbirkorlik uchun kredit olishda,
- **6 nafari (1.7%)** Ta'limga jalb qilindi (OTM, Professional ta'lim)

- **46 nafarini (13.1%)** o‘zini o‘zi band qilishda amaliy yordam ko‘rsatildi.
- **4 nafari (1.1%)** tartibli mehnat migratsiyasiga chiqish

Shuningdek ushbu toifadagi yoshlarga qo‘ydagi qo‘sishma yordam turlari ko‘rsatildi:

- **7 nafarini** kasb-hunarga tayyorlash maskanlariga o‘qitildi
- **1 nafari** fan va chet tillarga o‘qitildi
- **6 nafariga** boshqa turdag'i amaliy yordam ko‘rsatildi.

II. Aloqa bank kridetlari yo‘nalishi:

Ishsiz yoshlар bandligini taminlash maqsadida **29 nafar** yoshlarga tadbirdorlik faoliyatini boshlash va o‘zini o‘zi band qilishga tijorat banklaridan Aloqabankni yoshlarning **biznes loyihalarini** qo‘llab-quvvatlovchi tayanch “**yoshlar banki**” sifatida bugungi kungacha **29 ta** ilg‘or beznis loyihalarga jami **1 mlrd 211 mln** so‘mlik kredit mablag‘lari ajratildi.

III. Yoshlar jinoyatchiligi yo‘nalishi:

2025-yil yanvar-iyun oylarida tumanda **13 nafar** yoshlар tomonidan **16 ta** jinoyat sodir etilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan **8 taga (33.3%)** kamaygan (2024 yil yanvar-iyun oylarida **24 ta** jinoyat).

Ushbu jinoyatlar toifalariga ko‘ra:

- Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish – 1 nafar
- Qasddan badanga yengil shikast yetkazish – 1 nafar
- O‘g‘rilik – 5 nafar
- Firibgarlik – 1 nafar
- Bezarilik – 1 nafar
- Transport vositasini olib qochish – 1 nafar
- Boshqa turdag'i jinoyatlar – 6 nafar

Tahlillarga ko‘ra tumanda **37 ta** mahalla (**63 foiz**) jinoyatdan holi bo‘lib “**yashil**”, **19 ta** mahalla (**32 foiz**) jinoyat soni barqaror holda “**sariq**” toifaga hamda **3 ta** (Ukrash, Qaynarbuloq va Jahonobod) mahallalarida (**5 foiz**) jinoyat oshgan holda “**qizil**” toifaga kiritilgan.

Jinoyat sodir etgan tuman yoshlарining **2 nafari** boshqa hududdan (*Navoiy shahri, Pastdarg‘om tumani*) kelib jinoyat sodir etgan, **11 nafari** Paxtachi tumanida **yashovchi** yoshlар tomonidan sodir etilgan jinoyatlardir.

Jinoyat sodir etgan **13 nafar** yoshning **12 nafarini erkak, 1 nafarini ayol, 1 nafarini** hech qayerda ishlaymaydigan, **2 nafari** xususiy sektorda, **10 nafari** nodavlat notijorat tashkilotida ishlaydigan yoshlarni **tashkil etadi**.

Jinoyat sodir etgan yoshlarning **10 nafari** muqaddam **sudlanmagan**, birinchi marotaba jinoyat ko‘chasiga kirgan yoshlar hisoblansa, **2 nafari** muqaddam **sudlangan** yoshlarni tashkil qiladi

Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish borasida mahalla yoshlari yetakchilari, profilaktika inspektorlari va umumta’lim maktablari rahbarlari ishtirokida doimiy “**Tig**”, “**Davomat**” hamda tungi “**Qalqon**” guruhi tadbirlari o‘tkazib kelinmoqda.

VI. *Yoshlar daftari yo’nalishi:*

Yoshlar daftariidan yanvar-may oylari davomida **182 nafar** yoshlarga **293 mln 755 ming so‘mlik** amaliy yordamlar ko‘rsatildi.

Jumladan:

-**80** nafar yoshlarga – **160 mln** so‘mlik to‘lov kontrakt

-**93** nafariga – **103 mln 895 ming** so‘mlik ilim-fan kurs harajatlari

-**1** nafariga – **1 mln 200 ming** so‘mlik asbob uskuna

-**3** nafariga – **28 mln** so‘mlik kridet mablag‘iga kafilli

-**2** nafariga – **660 ming** so‘mlik passport badali to‘lov larga

-**2** nafariga – doimiy ishga kirishi uchun kafillik

-**1** nafariga – dehqonchilik faoliyatini amalga oshirishi uchun yer maydoni olishiga kafillik berish yordamlari ko‘rsatilgan

V. *Maktab bitiruvchilarini bandligini taminlash yo’nalishi:*

Tumanda **2024–2025 o‘quv yilida** umumiyo o‘rta ta’lim muassasalarini **1 592 nafar** bitiruvchilar (*2024 yilning mos davriga 1397 nafar*) yakunladi.

Bitiruvchilarning (**1 555 nafar**) **97,7 %** ortig‘i oliy ta’lim muassasalariga hujjat topshirishgan.

O‘quvchi qizlarning ota-onalari bilan muntazam ravishda tashkil etilgan yuzma-yuz muloqotlar hamda davra suhbatlari orqali ularning dunyoqarashida ijobiyl o‘zgarishlar kuzatildi. Natijada, qiz bolalarning oliy ta’limga hujjat topshirish ko‘rsatkichi o‘tgan yilning (**349 nafar**) mos davriga nisbatan **42,5 %**ga (**820 nafar**) oshdi.

77 nafar bitiruvchi xalqaro IELTS sertifikatlariga ega bo‘ldi.

734 nafar (46,1 %) bitiruvchi OTM ga qabul qilindi.

VI. *Politexnikum bitiruvchilarini bandligini ta’minalash yo’nalishi:*

Tumandagi jami Politexnikumi bitiruvchilari soni **736 nafar**, shundan o‘g‘illar soni **335 nafar**, qizlar soni **401 nafar**.

OTM muassasalariga hujjat topshirigan abituriyentlar soni **456 nafar**, shundan xotin-qizlar soni **158 nafar**.

Doimiy ishga joylashganlar soni **158 nafar**, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lganlar soni **200 nafar**, o‘z-o‘zini band qilganlar soni **249 nafar**.

Tumanda ta’limning tegishli bosqichlarini tugatgan **2562 nafar** bitruvchilarining (**1592 nafar**-maktab, **736 nafar**- profesona ta’lim, **234 nafar** – OTM bitruvchilari) mehnat bozoriga kirib kelayotgan **2045 nafarini** ish bilan taminlash maqsadida “Bandlik dasturlari” ishlab chiqilgan bo‘lib unga ko‘ra bugungi kunda:

- **177 nafar** Doimiy ish o‘rinlariga jaylashtirilgan yoshlar soni
- **77 nafari** Kasb-hunar va zamonaviy kasblarga o‘qitilgan yoshlar soni
- **875 nafari** Ta’limni keyingi bosqichiga jalb etilgan yoshlar soni
- **6 nafari** Tartibli migratsiyaga yuborish orqali banligi ta’minlangan yoshlar soni
- **19 nafari** Tadbirkorlik faoliyati uchun kredit ajratilgan yoshlar soni

VII. “Dolzarb 90 kunlik” yo’nalishi:

“Ta’limda dolzarb 90 kunlik” dasturi bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlar tuman hokimligi hamda mas’ul tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan **“Kalendar reja”** ga asosan **51 ta** mahalla va **48 ta** maktabda boshlangan.

Rejaga muvofiq, uch oy davomida jami **9 180 ta** tadbir, shundan **2 295 ta** tanlovlari, **3 213 ta** sport musobaqalar va **3 672 ta** ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilishi rejajashtirilgan.

Bugungi kun holatiga **4 961 ta** tadbir, shundan **1 240 ta** tanlovlari, **1 736 ta** sport musobaqalar va **1 985 ta** ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilib, **46 ming 58 nafar** aholi (shundan, **40 590 nafar** maktab o‘quvchilari, **1 203 nafar** ijtimoiy himoyaga muhtoj, **4 194 nafar** kambag‘al oilalar farzandlari, **71 nafar** profilaktika hisobida turuvchi yoshlar) alohida yondashuv asosida tarbiyaviy-ma’rifiy suhbatlar, psixologik mashg‘ulotlar, motivasion uchrashuvlar tashkil etildi.

VIII. “Yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish” yo’nalishi:

Yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida joriy etilgan **“Besh tashabbus olimpiadasi”** doirasida mini futbol, futbol, voleybol, shaxmat, shashka, yengil atletika, gandbol, vorkaut, adaptiv (nogironligi bo‘lgan yoshlar o‘rtasida), mohir fortepianochi va yosh musavvir musoboqa va tanlovlaringin mahalla, sektor hamda tuman bosqichlari o‘tkazildi. Ushbu musoboqa va tanlovlarga jami **47 107 nafar** yoshlar qamrab olindi.

Tuman bosqichida yuqori natija ko‘rsatib, viloyat bosqichida ishtirok etgan Guliston mahallasining Gandbol bo‘yicha xotin-qizlar jamoasi 3-o‘rinni Gulobod mahallasining yoshlari Mini futbol sport turidan 3-o‘rinni Saroy mahallasini yoshlari Voleybol sport turidan 1-o‘rinni egallahdi.

Respublika bosqichida kurash sport turidan Urg‘uch mahallasidan Sunnatullayeva Mashxura qatnashib faxrli 3-o‘rinni egallab bronza medali sohibi bo‘ldi.

Suluvqo‘rg‘on hamda Sardoba mahallasining yoshlari Yengil atletika va Stritbol

sport turlaridan faxrli 1-o'rinni egallashdi bundan tashqari Gimnastirada sport turidan 2-sektor mahallalari qizlari jamoasi respublikada ketma ket 2-marta 1-o'rinni egallashdi.

Tumanimiz yoshlari Respublika bosqichida 4ta oltin va 1ta kumush medal bilan respublikada tengsiz ekanligi isbotladi.

IX. "Migrasiyadagi yoshlar bilan ishlash" yo'nalishi:

Bugungi kunda **514 nafar** yoshlar xorijiy **migratsiyada** bo'lib ushbu yoshlarning **462 nafari (89%)** ishlash maqsadida, **52 (11%) nafari** o'qish maqsadida xorijiy migratsiyaga chiqib ketgan.

Yil boshidan buyon **48 nafar** migrant yoshlar tumanga qaytarilgan bo'lib ularning bandligi qo'ydagisi yo'nalishlarda ta'minlangan:

- 6 nafari** doimiy ish o'rinlariga
- 7 nafariga** tadbirdorlik qilish uchun kredit mablag'lari ajratilgan
- 5 nafari** kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitilgan
- 4 nafariga** dehqon xo'jaligi uchun yer maydonlari ajratilgan
- 26 nafariga** boshqa ijtimoiy yordamlar ko'rsatilgan

Yil yakuniga qadar **54 nafar** migrant yoshlarni tumanga qaytarib bandligini ta'minlash rejalashtirilgan.

Paxtachi tumani Maktabgacha va mактаб та'лими бо'лимига қарашли мактаблар ва maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2025 yil 9 oy davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot

Bugungi kunda tumanimizda **47** ta umumiyo'rta ta'lim maktablari hamda **3** ta maktab (**3-,12-,24**) filiallarida **27376** nafar o'quvchilarga **2403** nafar pedagoglar ta'lim-tarbiya berib kelishmoqda.

Pedagoglarning **SIFAT TARKIBI** bo'yicha aytib o'tadigan bo'lsam, **2025 yilda Oliy toifa 422 nafar, (17,6%) 1 toifa 632 nafar, (26,3%)** Sifat ko'rsatgich tuman bo'yicha **1054 (43,9%)** ni tashkil qilmoqda.

2025 yilda **1-sinfga** kelgan **3130** nafar o'quvchilarni maktabga qamrob olish bo'yicha arizalar kelib tushgan. Barcha arizalar maktabda tashkil qilingan shtablarda qabul qilinib ADM ba'zaga o'quvchilar ro'yxati kiritildi.

2024-2025 o'quv yilida esa maktab bitiruvchilarimizning 1592 nafaridan 735 nafari davlat oliy ta'lim muassasalariga kirib 46,1 % ko'rsatgichga erishildi. O'rtacha 87,4 ballni tashkil qilmoqda.

Bitiruvchilarimizdan muddatidan oldin Xorijiy OTM ga kirgan **6** nafarni tashkil qilmoqda. (**Top-1000**)

Muddatidan oldin **O‘zbekistonning OTM ga 4 nafar** kirgan bo‘lsa, **Nodavlat OTM larga esa 128 nafar** bitiruvchilarimiz kirishgan.

2025 yilda **1592** nafar maktab bitiruvchilarimizda **85** nafari oltin va kumush medallarni qo‘lga kiritgan. **Shundan 69 ta oltin va 16 ta kumush. 10 ta kumush medalga oshgan.**

2025 yilda yangi baholash tizimi **ChSB** tushgan maktablar **7 ta (1-,4-,6-,18-,20-,21, 22-,31-,37 va 41)** bugungi kunda yangi baholash tizimiga o‘tgan.

2025-2026 o‘quv yilida “**Kasbiy rivojlantirish kuni**” va “**Kasbiy rivojlantirish soat**”larida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish uchun tumanda **6** ta tayan maktablarda tashkil qilingan.**(6-,12-,13-,24-,29-32)**

Bugungi kunda Paxtachi tumanida ta’lim sifati past bo‘lgan maktablar mavjud emas.

Tumandagi **6** ta (**1-,12-,22-,32-,34-,37-**) umumiyo‘rta ta’lim maktabida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunar o‘rgatish joriy etilgan.

Bunda **3** ta kasb buyicha **1324** nafar o‘quvchi kasb-hunar o‘rganib kelmoqda. **2024-2025** o‘quv yili davomida **71** nafar bitiruvchi yoshlar ikkita kasb bo‘yicha sertifikat olishga erishdilar.

2024-2025 o‘quv yilida **2** ta inklyuziv sinflar tumandagi **23-48**-maktablarda joriy etildi. Ushbu maktablarda **3** nafar o‘quvchi ta’lim olib kelgan bo‘lsa, **2025-2026** o‘quv yilida **3** ta inklyuziv sinflar **24-22-28**-maktablarda joriy etildi. Ushbu maktablarda **3** nafar o‘quvchi ta’lim olib kelmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2025-yil 9 oy bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari.

Paxtachi tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli qarashli **43** ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, **2** ta Davlat xususiy sherikchilik asosida va **182** ta nodavlat oilaviy ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatmoqda.

Shundan:

2024-2025 o‘quv yilida 3-7 yoshli bolalar **13497** nafar tashkil etib shundan, MTTlarida qamrovi **84.2** foizni tashkil etib, shundan **11341** nafar bolalar maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan bo‘lsa, 01.09.2025 yil holatiga 3-6 yoshli bolalar **14 119** nafar tashkil etib shundan, **12 257** nafar (**86.5%**) bolalar maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan. Yil yakuniga qadar **87.3** foizga yetkazish bo‘yicha yo‘l xaritalari ishlab chiqilgan.

Tuman hokimining 28.03.2025 yilda 258-7-102-MMTM/2025-soni Farmoyishi asosida 5-, 9-, 25-DMTTlarida **100** o‘rinli bir yillik majburiy ta’lim

guruhlari tashkil etildi hamda tuman hokimining 10.06.2025 yilda 419-7-102-MMTM/2025-sonli Farmoyishi asosida 5-, 28- va 40-DMTTlarda 100 o‘rinli asosiy guruhlar ochish evaziga quvvat oshirildi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagog-xodimlarning umumiyo‘soni **557** nafar tashkil etib, oliy ma’lumotlilar **230** nafar (**41,3%**), tugallanmagan oliy ma’lumotlilar **98** nafar (**17,6%**), o‘rtalik maxsus ma’lumotli pedagoglar **229** nafari (**41,1%**) pedagoglar faoliyat olib bormoqda.

2025-yil may oyidan boshlab Suluvqurg‘on MFY hududidan 120 o‘rinli 23-davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti va Guliston MFY hududidan yangi 150 o‘rinli 17-davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘z faoliyatini boshladi.

2025 yilda tumandagi Urganji MFY hududidagi 150 o‘rinli 11-davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti va Nayman MFY hududidagi 120 o‘rinli 36-davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat dasturi asosida rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda.

Pedagog va tarbiyalanuvchilarni bbit.uz elektron platformasidan onlayn davomatdan o‘tkazish uchun 39 ta DMTTga planshetlar yetkazib berildi.

Bugungi kunda tumandagi barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga kuzatuv kameralari o‘rnatalib, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni 2-ilovasiga muvofiq barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulangan.

Joriy yilning boshida **170** ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan. Og‘ir mahallalarda bo‘yicha tashabbuskor tadbirkorlar ro‘yxati shakllantirilib oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etildi;

Jumladan:

1. “Chashma” MFYda Bobobekova Moxira YaTTga tegishli ONMTTda **50** o‘rinli. Tashkil etilgan sanasi 2025 yil 3-aprel.
2. “Bo‘ston” MFYda Iskandarov Erkin Davranovich YaTTga tegishli ONMTTda **50** o‘rinli tashkil etilgan sanasi 2025 yil 2-aprel.
3. “Bo‘ston” MFYda Jumaev Anvar Kamoljonovich YaTTga tegishli ONMTTda **48** o‘rinli tashkil etilgan sanasi 2025-yil 27 mart.
4. “Gulshan” MFYda Raimqulova Farangiz Tolipovna YaTTga tegishli ONMTTda **25** o‘rinli. tashkil etilgan sanasi 2025-yil 16 iyun.
5. “Naxripay” MFYda Soatova Lolaxon Sattarovna YaTTga tegishli ONMTTda **40** o‘rinli tashkil etilgan sanasi 2025-yil 18 iyul.
6. “Ukrash” MFYda Shermanova Dilfuza Shamsiddinovna YaTTga tegishli ONMTTda **40** o‘rinli Tashkil etilgan sanasi 2025-07-17

7. “Ukrash” MFYda Sharipova Gulchexra Nuralievna YaTTlarga tegishli ONMTTda **50** o‘rinli tashkil etilgan sanasi 2025-yil 18-iyul.
8. “Urganji” MFYda Davronova Zuxra Ramazanovna YaTTga tegishli ONMTTda **40** o‘rinli Tashkil etilgan sanasi 2025-yil 15-iyul.
9. “Yobu” MFYda Xalmuminov Rejab YaTTga tegishli ONMTTda **38** o‘rinli Tashkil etilgan sanasi 2025-yil 15-iyul.
- 10.“Zarafshon” MFYda Ruzieva Izaypo Yuldashevna YaTTga tegishli ONMTTda **50** o‘rinli ” 2025-yil 14-avgust jami 10 ta oilaviy bog‘cha quvvati 431 o‘rinli larni tashkil etilib faoliyati yulga qo‘yilgan.

Ayni damda **180** ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

2025-2026 o‘quv yili kuz-qish mavsumini betalofat o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi PQ-454-son “2025 — 2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Paxtachi tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 9-umumi o‘rta ta’lim maktabida **2160 mln so‘m evaziga **180** o‘rinli qo‘shimcha bino qurilmoqda. Qurilish ishlari **93 %** ga bajarilgan bo‘lib, bugungi kunda foydalanishga topshirilishi arafasida. Erishiladigan natija: Maktab koeffitsienti **1,0 %** tushirishga erishiladi**

11 DMTTga **4150** mln so‘m evaziga **150** o‘rinli hamda **36** DMTT ga **3600** mln so‘m evaziga **120** o‘rinli bino qurilish ishlari amalga oshirilmoqda

Yangi **2025-2026** o‘quv yiliga barcha ta’lim muassasalari to‘liq o‘quvchilarimiz uchun tayyor holga keltirilib dars mashg‘ulotlari boshlab yuborildi.

Tayyor holga keltirish uchun qo‘yidagi ishlar amalga oshirildi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim tashkilotlariga **200** mln so‘mlik lenionium, ichki pol qismini ta’mirlash uchun (**11-, 17-, 22-, 24-, 36-maktablarga**) **3600** m² (lenonium) hamda yangi o‘quv yiliga tayorgarlik uchun **350** mln so‘mlik **5700** kg bo‘yoq (polovoy), **340** kg bo‘yoq (oq) va Emulsiya **6500** kg ta’lim tashkilotlariga yetkazib berilib ta’mirlash ishlari oxiriga yetkazildi.

2025-2026 o‘quv yilida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va betalofat o‘tkazish maqsadida jami **2936** tonna ko‘mir mahsulotlari reja qilinib, rejaga muvofiq yetkazib berildi. Shundan **2147** tonna umumiy o‘rta ta’lim maktablariga va **789** tonna ko‘mir yoqilg‘isi Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

Tumandagi ta'lim tashkilotlarida **496** dona isitish qozonlari mavjud bo'lib, kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish maqsadida **635** mln so'mlik **57** dona turli rusimdag'i qozonlar va isitish tizimini ta'mirlash uchun **93** mln so'mlik quvurlar harid qilindi. Shundan umumiyo'rta ta'lim maktablaridagi isitish qozonlaridan **26** tasi (**5-, 6-, 7-, 8-10-, 11-, 12-, 14-, 17-, 21-, 23- 29-, 32-, 33-, 35-, 38-, 46-maktablariga**) yangi isitish qozonlari o'rnatish rejalashtirilgan bo'lsa bugungi kunda **25** ta yangi isitish qozonlari almashtirilib foydalanishga topshirildi.

Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan **5** ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida isitish tizimini ta'mirlash uchun **80** mln so'mlik joriy ta'mirlash ishlari bajarildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi **129** ta isitish qozonlaridan **31** tasi (**1-, 2-, 3-, 4-, 7-, 10-, 12-, 13-, 16-, 19-, 21-, 22-, 24-, 25-, 26-, 28-, 29-, 33-, 37-, 39-, 41-, 44-DMTTlarga**) yangi isitish qozonlari o'rnatish rejalashtirilgan bo'lsa bugungi kunda **28** ta yangi isitish qozonlari almashtirilib foydalanishga topshirildi.

2025-2026 o'quv yilida ko'mir yoqilg'isini sifatli yonishi uchun **52** dona havo xaydovchi moslama (ventilyator) va isitish tizimlariga **28** dona issiq suv aylantirib turuvchi (sirkulyatsion) nasoslar olib berildi.

Shundan umumiyo'rta ta'lim maktablariga **32** dona havo haydovchi ventilyator hamda **28** dona issiq suv aylantirib turuvchi (sirkulyatsion) nasoslar olib berilgan bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun **20** dona havo xaydovchi moslama (ventilyator) o'rnatilib ishchi holatiga keltirildi.

Elektr energiyasidan samarali foydalanish maqsadida ta'lim tashkilotlariga **1000** dona zamonaviy tejamkor LED lampalar o'rnatildi.

Ta'lim muassalarini ichki tizimlarini ta'mir talab joylari aniqlanib, muammolar bartaraf etilib kelinmoqda.

Paxtachi tuman Madaniyat bo'limi va madaniyat markazlari tug'risida MA'LUMOT

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyundagi 178-sonli «2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosini taminlash maqsadida tumandagi mavjud 22 ta qishloq madaniyat uylari tugatilib 4 ta madaniyat markazi tashkil etildi. Bugungi kunda Paxtachi tumani Istiqlol mahallasi Istiqlol ko'chasi 53-uyda 62-son Madaniyat markazi joylashgan. Bino 1973 yilda qurilgan 2014 yil bino davlat dasturiga kiritilib kapital ta'mirdan chiqarilgan. Ushbu markazda 4 ta to'garak va 1ta unvonga ega "Ok-oltin" ashula va raqs xalq ansambli hamda "Qizbib sadolari" folklor jamoasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Tumandagi Obodon mahallasida 63-son "Nurafshon" madaniyat markazi joylashgan. Markaz binosi 1980 yilda qurilgan. Bino pishgan g'isht va bitondan

iborat. 2015 yil davlat dasturi bo'yicha ta'mirlanib 2016 yil foydalanishga topshirilgan. Markazda 3 ta to'garak faoliyat ko'rsatmokda.

Tumandagi Dabusqala mahallasi 35-umumta'lim mакtabida 64-son "Chaman" madaniyat markazi joylashgan. Ushbu markaz binosi davlat aktivlari tomonidan xatlovdan o'tkazilib bino bo'lim balansidan davlat aktivlari balansiga o'tkazilan. Markazda 2 ta to'garak mavjud.

Tumandagi Zarafshon mahallasida 65-son "Zarafshon" madaniyat markazi joylashgan. Markaz binosi 1980 yilda qurilgan. Markaz bino xom va pishgan g'ishtdan iborat. Bino 2023 yil ta'mirlangan. Markazda 3 ta to'garak mavjud.

Xozirda madaniyat bo'limiga qarashli madaniyat markazlarida 12 ta to'garak mavjud bo'lib ushbu to'garaklarda 105 nafar yoshlar qamrob olingan. To'garak a'zolari tuman va viloyat mikyosida o'tkaziladigan bayram tadbirlarida va turli xil tanlovlarda faol ishtirot etib kelmoqda.

Soha bo'yicha chiqarilgan qonunlar, qarorlar ijrosi yuzasidan bo'lim tomonidan muammolar mavjud emas.

Tumanda 1 ta Ziyovuddin yoshlar bog'i (tuman hokimligi balansida) hamda 1 ta viloyat muzey qo'riqxonasiga qarashli muzey faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Tumanda teatr mavjud emas.

Samarqand viloyati Paxtachi tumani Sport mакtabida II-yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan MA'LUMOT

Paxtachi tumani Sport mакtabida 2025 yil xolatiga 71 nafar trener faoliyat olib bormoqda. Ushbu trenerlarning 20 nafari oliv ma'lumotli bulsa qolgan 51 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega bulgan trenerlar xisoblanadi. (*o'rta maxsus trenerlarning 34 nafari bugungi kunda tugallanmagan oliv xisoblanadi*) Ushbu trenerlarning 44 nafari toifali trenerlar bo'lib, Bu umumiy trenerlarning qariyb 67% ga teng. (*14 nafar oliv, 23 nafar 1-toifa, 7 nafar 2-toifali trener*) 2024-2025-o'quv yilidan 18 nafar trener toifali trenerlar qatoriga qushildi.

- Sport mакtabida 2024-2025 o'quv yil davomida sportning 19 turi bo'yicha sport tugaraklari faoliyat olib bormoqda. 12 ta olimpiya (*voleybol, futbol, basketbol, gandbol, badiiy gimnastika, stol tennisi, yengil atletika, erkin kurash, yunon-rum kurashi, badminton, taekvando vt, velosport*) 3 ta Paralimpiya (*paraengilatletika, Para stol tennisi va parataekvando*) 2 ta milliy sport turi (*Milliy kurash va belbog'li kurash*) 2 ta noolimpiya sport turlari (*qo'l jangi va shaxmat*) sport turlaridan 201 ta gruxga jami 2580 nafar sportchilarni mashhg'ulotlarga jalgan. Ushbu sport turlari bo'yicha o'quv yili maboynida sportchilar bir qancha g'alabalarga erishdi. O'zbekiston championati va kubogida 21 nafar sportchilar g'olib va sovrinli o'rnlarni qulga kiritgan. (*Gandbol-2 nafar, Erkin kurash-3 nafar, Milliy kurash-Inafar, Qo'l jangi-9 nafar va Para yengil atletika-6 nafar*)

O'siyo championati va kuboklarida 1 nafar (*Futbol*) Jaxon championati va kubogida 3 nafar sportchilar g'olib va sovrinli o'rirlarni qulga kiritishdi. (*Qo'l jangi*) Bundan tashqari Davlat sport ta'lim muassasalari faoliyatini mutloqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora tadbirlari to'g'risida 2022 yil 6 iyundagi PQ-268-son qarorida nazarda tutilgan sportning uyin turlarini rivojlantirish maqsadida hududiy championat va kuboklarida g'olib va savrindor bo'lgan sportchilarga ustama tulash nazarda tutildi bu esa uyin turlarini rivojiga ijobiy tasir qildi o'quv yili maboynda uyin turlari bo'yicha 157 nafar sportchi viloyat championati va kubogi g'olibi va sovrindori bo'ldi. (*Voleybol 64 nafar, Futbol 16 nafar, Basketbol 65 nafar, Gандbol 12 nafar*). Bundan tashqari olimpiya sport turlarini rivojlantirish maqsadida sport klublari hamda sport ta'lim muassasalari sho'g'ullanuvchilari o'rtasida OLIMPIYa ChUQQILARI sport musobaqasi bo'gungi kunda mintaqaviy bosqichi yakuniga yetib rududiy bosqichlari bo'lib o'tmoqda. Paxtachi tumani sport maktabi shug'ullanuvchilari mintaqaviy bosqichida 1-o'rin 18 nafar, 2-o'rin 10 nafar, 3- o'rin 4 nafar bo'lib kiyingi boqichga yo'llanmani qulga kiritdi. Viloyat hududiy bosqichida bugungi kungacha o'tkazilgan musobaqalarning natijalariga kura 1-o'rin 5 nafar 2-o'rin 6 nafar va 3-o'rin 1 nafar sportchi natijaga erishdi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5279-son hamda 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ-5280- son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tizimidagi sport-ta'lim muassasalarining 2025-yilda davlat buyurtmasiga asosan razryadli va unvonli sportchilar tayyorlash ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risidagi 10 dekabr 2024 yildagi 01/1855-AF-sonli buyrug'ida 1-ilovasida Paxtachi tumani sport maktabi 2025 yilda 65 nafar razriyatli va 5 nafar unvonli sportchilarni yetishtirish vazifasi belgilangan. Shunga kura 2025 yil 8 oylik xisob-kitoblarga kura O'smirlar sport razriyatlari 85 nafar, 1-2-3 sport razriyatlari 42-nafar, SUN-4 nafar, SU-1 nafar. Jami 132 nafar sportchi razriyatli va unvonli bulishdi. (*Ushbu buyruqda berilgan vazifalarni bajarishda o'smirlar sport razriyatlari xisobga olinmaydi*)

-Yuqori sport ta'lim muassasalariga yetkazib berilgan sportchilar. Paxtachi tumani sport maktabi tomonidan 2024-2025 o'quv yili maboynda 20 nafar sportchilar yetkazib berilgan. Shundan 14 nafari Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi. Jumladan Milliy kurash bo'yicha trener Ashurov Jurabek 3 nafar sportchini Ixtisoslashtirilgan maktab intirnatiga, Shonazarov Zoxid 2 nafar ixtisoslashtirilgan maktab intirnatiga va 1 nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Irisova Salomat 1-nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga, Para stol tennisi bo'yicha trener Dolieva Moxijamol 1 nafar ixtisoslashtirilgan maktab intirnatiga, Badminto bo'yicha trener Xasanova Gulchexra 2-nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga, Abduraxmonova Shaxnoza 2-nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga, Voleybol bo'yicha trener

Xudaynazarova Shaxriniso 5-nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga, Belbog‘li kurash bo‘yicha trener Mamatov Dilshod 2-nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga va Erkin kurash bo‘yicha trener Qurbonov Sardor 1-nafar Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga sportchilarni yetkizib bergan. Shuni qushimcha qilish kerakki bir necha yil oldin Parataekvando bo‘yicha yuqori sport ta’lim muassasasiga o’tkazilgan sportchi Rustamova Karomat yoshlar bo‘yicha olimpiada letsenziyasini qulga kiritdi.

- O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligi tomonidan bugungi kunda sport bilan muntazam shug‘ullanadigan yoshlarni shaffofligini taminlash hamda soxani raqamlashtirish maksadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligining 16 may 2024 yildagi Sport mashg‘ulotlarida shug‘ullanuvchilar ishtirotini shaffofligini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida 01/809-A/F-son bo‘yrug‘ida Vazirlik tizimidagi barcha sport ta’lim muassasalari davomatni “My Sport” mobil ilovasi orqali davomat qilish belgilangan. Paxtachi tumani sport maktabi 80-85% davomatni amalga oshirib kelmoqda.

- Sport vazirligi tomonidan tashkil etilgan OLIMPIYa ChUQQILARI splort musobaqalari 3 bosqichda bo‘lib o‘tishi rejalashtirildi. Shunga kura 1 bosqich mintaqaviy, 2-bosqich Hududiy viloyat bosqichi va Respublika bosqichlari o’tkazilmoqda

Stol tennisi-Jami 174 nafar shug‘ullanuvchi shundan musobaqa yoshidagi sportchilar 44 nafar 11 nafar sportchi ishtirot etishdi.

Taekvando- 137 nafar shug‘ullanuvchidan 23 nafar musobaqa yoshidagi sportchilar shundan 4 nafar ishtirot etdi.

Yengil atletika- maksimal darajada ishtirot etishdi

Erkin kurash -maksimal darajada ishtirot etib mintaqqa va xududiy bosqichda umumjamoa xisobida 1-o‘rinni qulga kiritdi

Basketbol 3x3 – viloyat bosqichida munosib ishtirot etishdi xamda qizlar jamoasi 2-o‘rinni egalladi.

Badiiy gimnastika- **maksimal darajada ishtirot etishdi hamda** Mintaqqa bosqichida 1 o‘rinni qulga kiritdi

Yunon-rum-30 nafar shug‘ullanuvchida musobaqa yoshida 7 nafar mintaqqa bosqichiga ishtirot etib Viloyat bosqichiga ishtirot etmadidi.

Dzyu-do – milliy va belbog‘li kurash sport turi bo‘yicha jami 207 nafar sportchi 7 nafar trener mashg‘ulotlarni utmoqda shundan 41 nafar sportchi musobaqa yoshida. Mintaqqa bosqichiga 5 nafar ishtirot etishib viloyat bosqichiga sportchilardan 2 nafari uzlari trenersiz ishtirot etib kelgan.

Paxtachi tumani Oila va xotin-qizlar bo‘limi tomonidan xotin-qizlarga ko‘rsatilgan yordamlarto‘g‘risida

MA ’LUMOT

Tumanda 149 972 aholi bo‘lib, shundan 75302 nafari xotin-kizlar,tug‘ish yoshdagi ayollarimiz 43 425 nafari tashkil etadi 46 824 nafar oilalar mavjud bo‘lib, muhtoj ehtiyojmand nogironi bor oilalar Ayollar va Yoshlar daftarlardan manzilli yordam berilib kelinmokda.Shundan “Ayollar daftari” 6-bosqichiga 4 198 nafar xotin-qizlar kiritilib, ehtiyojmand muhtoj xotin-qizlarga moddiy, manaviy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy yordamlar ko‘rsatilib kelinmoqda.

Oilalarda ijtimoiy – ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, xotin-qizlar orasida salbiy holatlarni oldini olish bo‘yicha bir qator ishlар amalga oshirilmoqda .

Tumanda oilaviy ajralishlar 2025 yil uchinchi choragi davomida 52 nafarni (2024 yil 3 oyida 60 nafarni) 12 nafarga kamaygan. Mahalla kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi mahallalarda, Boltali MFYda 2 taga, Zarafshon MFYda 3 taga, Istiqlol MFYda 3 taga oshgan.

Oilaviy ajrimlarning oldini olish, oilalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish maqsadida: iyul, avgust, sentyabr oyidan boshlab “**Qadriyatlarimiz – bebahо boyligimiz!**”, “Ahil oila”, “Oila muqaddas”, “Qaynona kelin munosabaatlari”, “Ibratli oila”, “Qaynonam onam mening-kelinim bolam mening”, mavzularida 159 marotaba davra suxbatlari, yakka tartibda suxbatlar o‘tkazildi.

Viloyat Savdo Sanoat palatasi bilan birgalikda tadbirkor ayollar uchun sayyor qabullar o‘tkazilgan. Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi hamda mahalla faollari bilan birgalikda 135 marotaba yakka suhbatlar olib borilib, 68 nafar ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar yarashtirilishiga erishilgan.

Xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tahlili: 2025 yil 3-choragida jinoyatlar sodir etilmagan.

2024 yilning 3 oyidagi davomida xotin-qizlar tomonidan 2 ta jinoyat sodir etilgan **O‘z joniga qasd va suiqasd xolatlari 2025 yil 3 oyida** 1 ta Suluvqo‘rg‘on mahallasi 1989 yil to‘g‘ilgan N.N oilali 2 nafar farzandi bor o‘z joniga qasd qilgan.

2024 yilning 3 oyida 0 ta

TTB yo‘nalishida. 2025 yil 3 oyida 803 nafar xomilador xisobdan o‘tgan, 706 nafari erta muddatda hisobga olingan(88 %). 871 ta tug‘ulgan. 9 nafar ayolda tibbiy abort qilingan shundan 6 nafari rivojlanish nuqsonlari bo‘lganligi sababli amalga oshirilgan. Xisobga olingan xomiladorlarning 257 tasi birlamchi xomiladorlikni tashkil qiladi. 15-17 yosh tug‘ruqlar kuzatilmagan, 18- yosh tug‘ruqlar 1 nafar, 19-29 yosh 636 nafarni (73%), 30-34 yosh 78 nafarni (9%), 45 yosh va undan yuqori yoshdagilarda tug‘ruqlar kuzatilmagan. Jumladan, birlamchi tug‘ruqlar 251 ta(28.8%), Ikkilamchi tug‘ruqlar-305 nafar(35%), Uchlamchi tug‘ruqlar-225 nafar (25.8%), To‘rtinchu tug‘ruq-81 (9.2%), beshinchi va undan yuqori tug‘ruqlar-9(1.03%)ni tashkil qiladi. Aholining reproduktiv salomatligini saqlash va oilani rejalashtirish borasida, 2023 yil 3 oyida bachadon ichi vositasi (BIV)-1034 Oral-0, ineksiya kontrasepsiyalari mavjud emas, IJK-24 ta kontrasepsiya vositalari qo‘llanildi.

Nogironlikni erta aniqlash maqsadida tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasidada ayollar maslaxatxonasi bo‘limida skrining xona tashkil qilingan bo‘lib, erta muddatlarda xisobga olingan 803 nafar xomiladorlar ko‘rikdan o‘tkazilib, jami 16 nafar rivojlanishida nuqsoni bor homiladorlik erta muddatlarda to‘xtatildi. Ayollar maslaxatxonasida bachadon buyni saratoni kasalligini erta aniqlash maqsadida 3 oy davomida 1819 nafar ayollar kurikdan o‘tkazilib 69 nafariga viloyat onkologiya despanseriga yullanma berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi “Ayollar o‘rtasidagi onkologik kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash tizimini takomillashtirish, olib borilayotgan ishlarni tashkil etish hamda mutaxassislarning bilimlarini oshirish va ko‘nikmalarini muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi PQ № 402-sonli qarori ijrosi taminlash doirasida 3 oyda kungacha 316 nafar ayollardan bachadon bo‘yni saratoni kasalligini aniqlash maqsadida surtmalar olindi va 8 nafar

ayolda kasallik aniqlandi. Ularning 6 nafaridan qayta tekshirish maqsadida qayta surtma olindi.

2025-yilda onalar o'limi qayd etilmadi. Go'daklar o'limi 3 nafarni tashkil qilib, shundan 1 nafar tug'ma nuqson bilan, 1 nafari nafas yo'li kasalliklari(pnevmoniya) bilan, 1 nafari homila ichi infeksiyasi bilan nobud bo'lgan

Tumanda "Aholini ish bilan ta'minlash" bo'yicha ishlab chiqilgan **hududiy dasturiga** ko'ra, 2025 yil davomida **aholini bandligiga ko'maklashish** bo'yicha prognoz ko'rsatgich **2562** ta rejalashtirilgan bo'lib. Amalda iyul, avgust, sentyabr oylarida **655** nafar ishsiz fuqarolarga bandligi yuzasidan amaliy yordamlar ko'rsatildi. Shundan 166 nafarini yoshlard tashkil qiladi.

Ishga joylashtirish

Shundan; joriy yilning iyul, avgust, sentyabr oylarida ishsiz fuqarolarni ishga joylashishga ko'maklashish bo'yicha **544** ta ish o'rni rejalashtirilgan bo'lib, amalda ish bilan ta'minlanganlar soni **607** nafar tashkil etmoqda. Shundan **155** nafari yoshlard. **331** nafarini ayollar tashkil qiladi.

Kasbga o'qitish

Shuningdek **2025 yilning** iyul, avgust,sentyabr **oylari davomida 101 nafar** fuqarolar kasb-xunarga o'qitilishi rejalashtirilgan bo'lib, **109** nafar ishsiz va band bo'limgan fuqarolar **kasb-hunarga o'qitildi**, Shundan **27 nafari yoshlard** va **101 nafarini xotin-qizlar, 14 nafari** nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil etadi.

820-sonli karor buyicha. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora - tadbirlari to'g'risida" gi 820 - sonli qaror ijrosi bo'yicha 2025 yil 3 oyi davomida Yoshlarni oilaviy hayotga tayyolash markazlarida 25 nafar juftliklar jami 75 nafar turmush qurish arafasida turgan yoshlard o'qitilib, sertifikatlar takdim kilindi.

"Ayollar daftari" 6-bosqichiga **4198 nafar** xotin-qizlar kiritilgan.

.

1-toifa Ishsiz toifaga kiritilgan 2562 nafar xotin-qizlardan 2562 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi.

2-toifa Tadbirkorlik istagidagi toifaga kiritilgan 107 nafar xotin-qizlardan 107 nafariga 1,979 mln so‘m kredit ajratilgan.

3-toifa boquvchisini yo‘qotgan 491 nafar xotin-qizlarga 750 ming so‘mdan jami 220 mln 950 ming so‘mlik bir martalik moddiy yordamlar ajratilib undan tashqari toifaga kiritilgan 5 nafar xotin-kizlarga, uy-joylarini ta’mirlash uchun 25 mln so‘m mablag‘lar ajratildi.

4-toifa Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand 700 nafar xotin-qizlarga 750 ming so‘mdan jami 525 mln so‘mlik bir martalik moddiy yordamlar ajratilib undan tashqari toifaga kiritilgan 8 nafar xotin-kizlarga, uy-joylarini ta’mirlash uchun 40 mln so‘m mablag‘lar ajratildi.

5-toifa Uy-joyga muhtoj xotin-qizlar 5.2-bandı "Ijara kompensatsiya to‘lovi to‘lab berilgan xotin-qizlar 10 nafar tashkil qilib har biriga 450 ming so‘mdan jami 22 mln 500 ming so‘m ijara pullari to‘lab berildi.

6-toifa Qaramog‘ida nogiron farzandi bor xotin-qizlar 328 nafarni tashkil qilib 551 nafariga 750 ming so‘mdan jami 246 mln moddiy yordam berildi, 6.1 toifada tomarqadan unumli foydalanishni hohlovchilar 8 nafarni tashkil qilib. barchasiga tomorkadan unumli foydalanish 2 mln so‘mlik urug‘ va ko‘chatlar olib berildi.

Tumanda Oila maskani tashkil qilinib xotin-qizlarga turli masalalar bo‘yicha huquqiy, psixologik yordamlar ko‘rsatib kelinmoqda.

Paxtachi tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan amalga ishlar

1. Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarini ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-maydagi “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ-175** qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi 354-sون qaroriga asosan Paxtachi tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan joriy yilning 9 oyi davomida **259 nafar** tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar (va ularning voyaga yetmagan farzandlari) ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi.

Jumladan, ularning **50 nafari** (*24 nafar voyaga yetmagan farzandlari bilan*) tuman tibbiyat birlashmasida tashkil etilgan birlamchi ko‘mak xonasiga joylashtirilib, **198 nafariga** psixologik xizmat, **118 nafariga** huquqiy masalalarda yordam xizmatlari ko‘rsatildi.

Shuningdek, **115 nafar** xotin-qizlarning ehtiyojiga ko‘ra **143 ta** boshqa turdagи ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatildi.

2. O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrdagi “O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-410** son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martdagи **VM-123** son qaroriga asosan 2025-yilda **166 nafar** “O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg’iz yashovchi va yolg’iz keksa hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o’tkazildi.

Ko‘rik natijasiga ko‘ra, **40 nafari** ambulator, statsionar ko‘rinishda davolandi. 2025 yil boshidan hozirgi kunga qadar **48 nafar** o‘zgalar parvarishiga muhtoj fuqarolar “Yolg’iz keksa” reyestiriga kiritildi hamda **22 nafar** o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lmagan shaxslar ro‘yxatdan chiqarildi.

3. Adaptiv sport bo‘yicha

Tumanda Adaptiv sport bilan shug‘ullanuvchilar soni bugungi kun holatiga **78 nafarni** tashkil etib, shundan **16 nafari** para yengil atletika, **26 nafari** para taekvondo, **36 nafari** para stol tennis bilan shug‘ullanib kelmoqda. Ularni adaptiv sport turlari bilan shug‘ullantiruvchi trenerlar soni **4 nafarni** tashkil qiladi.

4. Psixologlar yo‘nalishi bo‘yicha

2025-yilning birinchi choragida Paxtachi tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologlar guruhi tomonidan jami **927 nafar fuqaroga psixologik xizmat** ko‘rsatildi.

Ko‘rsatilgan xizmatlar quyidagi toifalardagi fuqarolarni qamrab oldi:

1. Nogironligi bo‘lgan shaxslar – 82 nafar

- Ushbu shaxslarning psixologik holatini barqarorlashtirish, ijtimoiy faolligini oshirish va oilaviy muhitga moslashuvini ta‘minlash maqsadida individual suhbatlar, psixokorreksion mashg‘ulotlar hamda maslahatlar berildi.

2. Og‘ir ruhiy holatga tushib qolgan oilalar – 281 nafar

- Ruhiy-emotsional muvozanatni tiklash, stress va depressiv holatlarning oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktika ishlari olib borildi. Zarur hollarda mahalliy hokimlik va sog‘liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik qilindi.
- 3. Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar – 182 nafar**
- Mazkur toifadagi ayollarga maxfiylik asosida individual psixologik yordam ko‘rsatildi. Ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, ijtimoiy faollikka jalb etish va huquqiy maslahatlar bilan ta‘minlash bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

Psixologik xizmatlar ko‘rsatishda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi:

- Shaxsga yo‘naltirilgan individual maslahatlar
- Guruhli psixotreninglar va ijtimoiy moslashuv mashg‘ulotlari
- Oilaviy maslahatlar va muammolarni hal etish strategiyalari

Hisobot davrida amalga oshirilgan faoliyatlar fuqarolarning psixologik barqarorligini ta‘minlash, ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish hamda himoyaga muhtoj qatlamlar bilan tizimli ishslashga qaratilgan bo‘ldi

5. Ijtimoiy to‘lovlar yo‘nalishi bo‘yicha

Tumanda bugungi kun holatiga **46 824** ta oilalar istiqomat qiladi.

2025 yil yanvar oyi holatiga **4 657** ta oilalar **2 185,7** mln so‘m ijtimoiy nafaqa olib kelgan va bu jami oilalarning **10,0 foizini** tashkil qilgan.

Ushbu ko‘rsatgich 2025 yil 1-oktyabr oyi holatiga

4 277 ta oilalarga **2 274,3** mln so‘m ijtimoiy nafaka oluvchilar bulib, qamrov darajasi **9,1** foizni tashkil qiladi.

Utgan 9 oyda tahlilarini oladigan bo‘lsak jami **380** ta oilalar ijtimoiy nafaqa olish belgilanmagan.

2025 yil sentyabr oyi holatiga zarur mehnat stajiga ega bo‘lmagan nafaqa oluvchilar jami 3040 nafarga 3 062,1 mln so‘m to‘lab berildi.

6. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha

Bugungi kunda tumanda **56 176 nafar** voyaga yetmagan bolalar istiqomat qiladi.

O‘tgan davr mobaynida (2020-2023 yillarda) **350 nafar** bolalarga vasiylik va homiylik belgilangan bo‘lsa, 2024 yil davomida mahallardagi ijtimoiy xodimlar tomonidan **292 nafar** ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalar aniqlanib ular vasiy va homiy shaklida joylashtirildi. Joriy yilning bugungi kuniga qadar yana **100 nafar** bolalarga vasiy va homiylar tayinlandi.

Shuningdek, **53 nafar** 18 yoshgacha bo‘lgan yetim va ota-onada qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar mavjud. Shundan, **23 nafari** chin yetimlar, **30 nafari** esa ota-onada qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar hisoblanadi.

19 nafar 18 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan yetim va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan mavjud bo‘lib, shundan, **14 nafari** oliv ta’limda, **1 nafari** kab-hunar texnikumida, **4 nafari** “Ziyovuddin silk” MChJda ish bilan band qilindi.

2024-2025 o‘quv yilida tumandagi **5 nafar** yetim bolalar imtiyozli ravishda oliv ta’limga o‘qishga qabul qilingan bo‘lsa, 2025 yilda yana **6 nafar** bolalarni imtiyozli ravishda oliv ta’limga o‘qishga kiritish rejalashtirilib, hozirgi kunda **2 nafari** OTMga qabul qilindi.

Bundan tashqari, 2021-2023-yillar mobaynida jami **1 nafar** yetim va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola respublika va mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan uy-joylar joylar bilan ta’minlangan bo‘lsa, 2024 yil mobaynida uy-joyga muhtoj bo‘lgan **4 nafar** yetim va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar belgilangan tartibga uy-joylar bilan ta’minlandi. 2025 yilda yana **1 nafar** yetim va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolani uy-joy bilan ta’minlandi.

Joriy yilning o‘tgan davrida Sudlarda bolalarning huquqlari va manfaatlari bilan bog‘liq **35 ta** sud ishlarida ishtirok etildi.

2024 yilda alohida ta’lim ehtiyojlariga muhtoj bo‘lgan **19 nafar** bolalar maxsus ta’limga va **2 nafar** inklyuziv ta’limga jalb etilgan bo‘lsa, joriy yilning bugungi kuniga qadar yana **3 nafar** bola maxsus maktabga, **8 nafar** bolalar inklyuziv sinflarga va **5 nafari** inklyuziv guruhlarga jalb etildi.

7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘yicha

Paxtachi tuman bo‘yicha 2025 yil 1 centyabr’ holatiga jami nogironligi bo‘lgan shaxslar **512 nafar**.

Shundan: I-guruh **433 nafar**, II-guruh **3493 nafar**, III-guruh **358 nafar**, 18 yoshdan kichik bo‘lgan nogironlar **827 nafarni** tashkil etadi.

Paxtachi tuman bo‘yicha 2025 yil 1 oktyabr’ holatiga.

2025 yil jami **376 nafar** Nogironligi bo‘lgan shaxslarni bandligini ta’minlandi.

Shundan: **356** nodavlat tashkilotlarga ishchi sifatida qabul, **20 nafari** davlat tashkilotlariga ishga joylashtirilgan

2025 yil jami **732 nafar** Nogironligi bo‘lgan shaxslar Protez va reabilitasiya vositalari bilan ta’minlandi.

Shundan: **189 nafari** Protez Ortopediya vositalari, **543 nafari** reabilitasiya texnik vositalari bilan ta’minlandi.

**Paxtachi tuman tibbiyot birlashmasida tibbiyot tizimidagi amalga oshirilgan
ishlar bo‘yicha 2025 yil 1-oktabr holatiga**
HISOBOT

1. 40 yoshdan oshgan aholini 2025 yilga muljallangan tarmoq reja tuzilib,reja asosida 2025-yilning 9 oyligida 28712 nafari qandli diabet kasalligi skrining ko‘rigidan, 25200 nafari yurak qon tomir kasalliklariga manzilli skrining ko‘riklardan o‘tkazildi. Shundan 197 nafarida birlamchi qandli diabet kasalligi, 216 nafarida yurak qon tomir kasalligi, 1342 nafarida ortiqcha vazn, 287 nafar semizlik aniqlandi. Birlamchi aniqlangan 411 nafar bemorlarning 389 nafari ambulatoriya va kunduzgi shifoxona sharoitida, 49 nafari tuman markaziy shifoxonasida, 17 nafari viloyat darajasidagi shifoxonalarda va 2 nafari Respublika darajasidagi shifoxonalarda sog‘lomlashtirildi.

2. Tumanda 52150 nafar 18-40 yoshli aholi bo‘lib, 2025-yilning 9 oyligida 32914 nafari profilaktik ko‘riklardan o‘tkazildi. Profilaktik ko‘riklar natijasida 1002 nafar fuqarolarda 3-4-xavf guruhlari(surunkali kasalliklar) aniqlanib, shundan 917 nafari ambulatoriya sharoitida, 72 nafari tuman markaziy shifoxonasida sog‘lomlashtirildi.

3. 45-65 yoshdagi ayollarda ko‘krak bezi saratoni kasalligini erta bosqichlarda aniqlash maqsadida reja asosida 8970 nafar ayollar skriningdan o‘tkazildi. 35-55 yoshdagi ayollarda bachadon bo‘yni saratoni kasalligini erta bosqichlarda aniqlash maqsadida reja asosida 10556 nafar ayollar skriningdan o‘tkazildi.Skrining natijasiga ko‘ra 122 nafar ayollarda ko‘krak bezi saratoniga xavf aniqlanganligi, 68 nafar ayollarda bachadon bo‘yni saratoniniga xavf aniqlanganligi sababli viloyat onkologiya markaziga yuborildi va 1 nafar ayol nazoratga olindi.

4. Joriy yilning 9-oy davomida 0-18 yoshgacha bo‘lgan 56213 nafar boladan 32000 nafari chuqurlashtirilgan tibbiy kurikdan o‘tkazildi. Tibbiy kurik natijalariga ko‘ra 5011 nafar (17,1%) birlamchi kasalliklar aniqlandi. Aniqlangan kasalliklardan 4609 nafari ambulator sharoitda, 502 nafari statsionar sharoitda davolandi.

5. Tumanimizda 2-10 yoshli bolalar 29545 nafarni tashkil etadi. 9-oy davomida 17727 nafar bolalar gelmintoz kasalligiga tekshirish rejalahtirilgan bo‘lib.shundan 7977 nafari(45%) gelmintoz kasalligiga tekshirildi.Joylarda ro‘yxatlari shakllantirilib dori tarqatish rejalarini tuzildi. 3-18 yoshli bolalarda onkogematologik kasalliklarni erta aniklash maksadida 2025 yil uchun kunlik,oylik,yillik tarmoq reja tuzilgan.2025 yilda 3-18 yoshli bolalar 43717 nafarni tashkil etadi.Shulardan 2025-yil 9-oy reja buyicha 26230 nafar skriningdan o‘kazilishi kerak edi. 23869 nafari yani 91,1% onkogematologik skriningdan o‘tkazildi.Barchasiga ambulator kartalar yuritilib so‘rovnama asosida skrining o‘tkazilgan.Kasalliklar aniqlanmadи.

6. Boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash 2025-yil reja bo‘yicha 7425 nafar bo‘lib, 9 oy davomida 4201 nafar bolalar emlash bilan qamrab olindi.

7. Sog‘lom onalikni ta’minlash, irsiy kasalliklarni oldini olish maqsadida hisobga olingan 1568 nafar homilador ayollar hisobga olingan.Shulardan 1432 nafar homilador ayollar skrining tekshiruvidan o‘tkazilgan.Skrining natijasiga ko‘ra 39 ta homiladorda akusherlik patologiyasi aniqlanib,homilasi to‘xtatilgan.

8. 25201 nafar surunkali kasalliklar bilan dispanser nazoratidagi bemorlarning 19981 nafari reja asosida 2025-yilning 9 oy davomida tibbiy ko‘riklardan o‘tkazildi. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan bemorlarning 18301 nafari ambulatoriya va kunduzgi shifoxona sharoitida, 1517 nafari tuman markaziy shifoxonasida, 146 nafari viloyat darajasidagi shifoxonalarda, 17 nafari Respublika darajasidagi shifoxonalarda davolanishga yo‘naltirilgan.

9. 2025 yil 9 oy davomida 4522 nafar imtiyozli toifadagi bemorlarning 3120 nafari Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan davolanishi tashkillashtirildi.

10. Tuman tibbiyat birlashmalarida murakkab laporoskopik jarrohlik amaliyotlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida birlashmaning 1 nafar shifokori Hindiston davlatida malakasini oshirdi.

11. Tuman darajasida 250 turdag‘i yangi yuqori texnologik tashhislash va davolash usullarini amaliyotga joriy qilish maqsadida mutaxasislarning ish joyida va ixtisoslashtirilgan markazlarda o‘z malakasini oshirib, hududiy master-klasslar o‘tkazildi va natijasida 250 turdag‘i yangi tashhislash va davolash usullarini mustaqil ravishda bajarilishiga erishildi.

12. Har chorakda tibbiyat tizimi rahbarlarining jamoatchilik oldida hisobotlarini o‘tkazish maqsadida tumandagi 51 ta mahallalarda tibbiyat birlashmasiga qarashli 5 ta oilaviy poliklinika va 11 ta oilaviy shifokorlik punktlari rahbarlari tomonidan 2025-yilning 1-2-chorak hisobotlari o‘tkazildi.

13. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida ta’mirlash ishlarini o‘tkazish maqsadida Bugungi kunda ta’mirtalab “Go‘rug‘li” oilaviy shifokorlik punkti binosini rekonstruksiya qilish bo‘yicha tanlov savdosida g‘olib deb topilgan Pudratchi korxona “Madina savdo belgisi” xususiy korxonasi tomonidan qurilish va ta’mirlash ishlari tugallandi. Xozirgi kunda bino foydalanishga topshirilgan.

14. “Tashabbusli budget” mablag‘larini jalb etgan holda markaziy shifoxonaning tug‘ruq bo‘limi (Pudratchi “Kapitaland DAK” xususiy korxonasi) va tez yordam bo‘limi binolarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash (Pudratchi madina savdo belgisi xususiy korxonasi), zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta’mirlash ishlari tugallangan. Tez yordam bo‘limi binosi foydalanishga topshirilgan. To‘g‘ruq bo‘limida Pudratchi “Kapitaland DAK” xususiy korxonasi tomonidan mukammal ta’mirlash ishlari tugallangan. Xozirgi kunda bino foydalanishga topshirilgan.

15. Investitsiya dasturi doirasida Tumandagi “Hakimqul” oilaviy shifokorlik punktida qurilish-ta’mirlash ishlarini olib borish uchun Islom taraqqiyot banki mablag‘lari hisobidan dastuga kiritish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda

oilaviy shifokorlik punktida bajariladigan ishlar mutaxassislar tomonidan o‘rganilib loyiha ishlari olib borilmoqda.

16. 2025-yilda tibbiyot birlashmasining bo‘lim va muassasalaridan 10 nafar malakali mutaxassislarni nufuzli chet el klinikalarida malaka oshirishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2025-yil 7 oy davomidv birlashmaning yuqumli kasalliklar bo‘limidan 1 nafar shifokor Hindiston davlatida malaka oshirdi.

17. 2025 yilning 9 oy davomida birlashmadagi 11 stavka vakant shifokor lavozimlarini to‘ldirish maqsadida 7 stavka vakant shifokor lavozimlari to‘ldirildi. Shundan tibbiyot oliygohlarini birituvchilaridan besh nafarini tashkil qiladi.

18. 2025-yilda 40 nafar shifokor va 192 nafar o‘rtta tibbiyot xodimlarini malakasini oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, 2025-yil 7 oy davomida 34 nafar shifokor va 107 nafar o‘rtta tibbiyot xodimlari malaka oshirdi.

19. Birlashmada sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish maqsadida davolash-profilaktika muassasalarini mahalliy budget mablag‘lari hisobidan 132 ta kompyuter bilan ta‘minlashi rejalashtirilgan bo‘lib, 2025-yil 9 oy davomida mahalliy budget va “Tashabbusli budget” mablag‘lari hisobidan 237 ta kompyuter jamlanmasi bilan ta‘minlandi.

Sanitariya Epedimologik Osoyishtalik Markazi Paxtachi tuman bo‘limi tomonidan 2025 yil 9 oyida bajarilgan ishlar

Tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limida jami shtatlar soni 64,5 stavka bo‘lib, jami xodimlar soni 67 nafarni tashkil etadi. Shundan 21,75 shtat birligida 18 nafar vrachlar, 24,75 shtat birligida 29 nafar o‘rtta tibbiyot xodimlari, 5,0 shtat birligida 7 nafar kichik tibbiy xodimlar va 13,0 shtat birligida 13 nafar boshqa xodimlar faoliyat olib bormokda.

2025 yil 9 oy davomida aholi o‘rtasida yuqumli kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlash va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish xamda yuqumli kasalliklar bo‘yicha xavfni erta aniqlash maqsadida bakteriologiya va parazitologiya laboratoriya taxlilari asosida ishlar olib borildi. Laboratoriyalar to‘liq tibbiy asboblar va diagnostikumlar bilan ta‘minlandi.

Tuman bo‘limi tomonidan olib borilgan tadbirlar natijasida tuman xududida o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar qayd etilmadi.

Mavjud 60 turdagи yuqumli kasalliklardan 21 turidagi yuqumli kasalliklar ro‘yxatga olindi.

Shundan 11 xilda yuqumli kasalliklarni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ko‘payishi kuzatildi (dizenteriya 1 ta, virusli gepatit S 1 ta, surunkali gepatitlar 6 taga, grippga o‘xhash kasalliklar 12, suzak 2, zaxm 4 ta, va exinokokkoz 2 taga) ko‘paygan.

Virusli gepatit A kasalligi 2024 yil 9 oyida 443 ta qayd etilgan bo‘lsa, 2025 yilning 9 oyida 236 ta qayd etilib 206 ta kasallik kamaygan. Zotiljam 201 taga, enterobioz 130 ta, geminolepidoz 59, trixofitiya 14 taga kamaygan.

Bo‘lim tomonidan barcha qayd etilgan kasallik o‘choklarida epidemiologik surishtirish ishlari va yakunlovchi dezinfeksiya tadbirlari olib borildi.

O‘z vaqtida o‘tkazilgan epidemiyaga qarshi tadbirlar natijasida aholi o‘rtasida trixofitiya, qo‘tir va sil kasaliklarining oilaviy xolatda qayd etilishini oldi olindi.

2025 yilda 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar 13 xildaga boshqariladigan yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ishlarni o‘tkazish uchun 18 ta emlash punkti tashkil etilgan bo‘lib, barchasida vaksinalarni sovuq zanjir tizimiga rioya qilgan xolda saqlash va ishlatish uchun sharoit yaratilgan.

2025 yil 9 oyida tumanda 2318 nafar chaqaloqlar to‘g‘ilgan bo‘lib, boshqariladigan yuqumli kasalliklarga qarshi rejaga nisbatan emlashlarning bajarilishi qo‘yidagicha bo‘lgan:

1. Silga qarshi chaqaloqlarni emlash rejasi 2318 ta shundan 2312 ta emlandi. 99.7 % bajarildi.
2. VGV qarshi chaqaloqlarni emlash reja 1218 ta shundan 2303 ta emlandi 99.4 % bajarildi.
3. 1 yoshgacha bolalarni sholga qarshi emlash 3091 nafar bo‘lib 3070 nafar emlangan 99.3 % bajarilgan
4. IPV vaksinasi bilan 4 oylik bolalarni emlash rejasi 2692 nafar bo‘lib 2660 nafari emlangan 98.8 % bajarilgan.
5. Pentovalent vaksina (virusli gepatit V, ko‘k yo‘tal, bug‘maga qarshi) emlash rejasi 2794 nafar bo‘lib 2393 nafar emlangan 85.6 % ga bajarilgan. Sentyabr oyida pentovalent vaksina bilan ta’midotda uzilish bo‘ldi.
6. Pnevmoniya kasalliga qarshi emlash reja 2892 nafar bo‘lib 2704 nafar emlangan 93.5 % ni tashkil etadi. Pnevmoniya vaksinasi bilan ta’midotda uzilish bo‘ldi.
7. 1 yoshli bolalarni qizamiq, qizilcha va epid parotitga qarshi emlash rejasi 2897 ta shundan 2879 tasi emlandi. 99.4 %
8. 2 yoshgacha bolalarni ko‘k yo‘tal, bug‘ma va qoqsholga qarshi qayta emlash reja 2781 ta bo‘lib 2760 tasi emlandi. 99.1 %
9. 6 yoshli bolalarni qizamiq qizilcha va epid parotiga qarshi emlash rejasi 2496 ta bo‘lib 2473 ta emlandi. 99.4% .

Bugungi kunda aholi o‘rtasida qizamiq kasalligi bo‘yicha respublika bo‘yicha qizamiq kasalligi bo‘yicha epidemiologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida 2545 nafar 6 oylik va 2062 nafar 30 yoshgacha bo‘lgan bir marta emlash olgan, chetdan ko‘chib kelgan aholi emlangan.

Ijro itizomi bo‘yicha:

2025-yil davomida Jismoniy va Yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar 7 ta bo‘lib, shundan, 3 ta yozma, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Ishonch telefoni orqali 2 ta, Paxtachi tuman hokimiga 1 ta, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga xalq qabulxonasi orqali 8 ta, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Veb-sayt orqali 2 ta, Sanepidqo‘m viloyat boshqarmasi orqali 1ta

murojaatlar kelib tushgan. Murojaatlar mutaxassislar tomonidan joyiga chiqib o‘rganilib, o‘z muddatida ijobiy hal qilingan.

Sanitariya gigiena bo‘limi bo‘yicha.

Tumanda jami ob’ektlar soni 879 ta bo‘lib, bular: 100 ta kommunal gigiena ob’ektlari, 277 ta mexnat gigienasi bo‘limi ob’ektlari, 274 ta bolalar va o‘smirlar gigienasi bo‘limi ob’ektlari, 197 ta oziq-ovqat gigienasi ob’ektlari va 31 ta davolash profilaktika muassasalari ob’ektlari.

Bolalar va o‘smirlar gigienasi bo‘limi bo‘yicha tumanda 42 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 48 ta umum ta’lim maktabi, 1ta tibbiyat texnikumi, 1ta pedagogika kolleji, 2 ta kasb xunar maktabi, 2ta DXSh, 1 ta oromgox, 173 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, 3 ta musiqa maktabi, 1 ta bolalar va o‘smirlar sport maktabi, jami 274 ta BUG ob’ekt mavjud. 9 oy davomida yuqoridan kelgan xat va murojaatlarga javob xati yozilgan. Muntazam ravishda ob’ektlarga sanitariya talabnomalar berildi.

9 oy davomida 59 ta ob’ektda sanitariya nazorat o‘tkazilgan. O‘tkazilgan nazoratda aniqlangan kamchiliklarga asosan 50 ta jarima solingan bo‘lib, so‘mmasi 88105000 so‘m, shundan undirilgan 52384544 so‘mni tashkil qiladi.

9 oy davomida DMTTlarda oziq-ovqat mahsulotlarini sifati tekshirilganda 51 kg osh tuzi, 857 kg poliz maxsulotlari iste’molga yaroqsiz mahsulotlar iste’moldan olindi. Barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ONMTTlarda va mакtab bufetlarida sanitariya minimum kursida o‘qitish tashkil etilib o‘qitildi. 44 ta ONMTTlarga profilaktik tavsiyalar berildi.

Kommunal gigiena bo‘limi bo‘yicha Respublika Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2024-yil 19-dekabrdagi №20-221167-sonli ko‘rsatma xatiga asosan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2021-yil 15-martdagи 27-sон buyrug‘ida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, mahallalardagi xonadonlarning orastaligini ta’minalash, yuqumli kasalliklarning oldini olish, to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarziga rioya etishda insonlar faolligini oshirish maqsadida Paxtachi tumanida 51 ta mahallalardan 9 oy davomida 42 ta mahallarda yig‘ilishlar reja-jadval asosida o‘tkaziladigan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi “Tadbirkorlik va sharsozlik faoliyatini amalga oshiorish uchun yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining YeRELEKTRON AAT 71-sonli qarori ijrosini ta’minalash maqsadida 9 oy davomida 137 ta kelib tushgan arizalarni ko‘rib chiqilib ijobiy xulosalar berilgan. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi yuzasidan Sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari bo‘yicha 9 oy davomida 1411 ta xulosa berilgan.

Sanepidqo‘m Paxtachi tuman bo‘limi Baktereologik labaratoriyasiga 174 ta suv namunalari olib kelingan shundan 7 ta suv namunalari talabga javob bermagan shu bo‘yicha Samarqand suv ta’mnoti” AJ Paxtachi tuman filiali raxbariga ido tizimi orqali xatlar chiqarilgan. Sanepidqo‘m Narpay tuman san-gig laboratoriyasiga 55 ta suv namunalari reja asosida suv namunalari olingan. Sanepidqo‘m Samarqand viloyati radiologiya labaratoriyasiga 14 ta vodoprovod suv, 17 ta ochiq suv

xavzalaridan namunalar, 18 ta tuproq namunalar olingan. Sanepidqo‘m Samarqand viloyati san-gig labaratoriyasiga 10 ta vodoprovod suv, 12 ta ochiq suv xavzalaridan namunalar, 10 ta to‘proq namunalar olingan. Sanepidqo‘m Samarqand viloyati zaxarli xim labaratoriyasiga 7 ta vodoprovod suv namunalar olingan.

Ovqatlanish gigienasi bo‘limi bo‘yicha: 2025 yilda jami ob’ektlar soni 197 ta , shundan oziq-ovqat sanoati korxonalari - 45ta, savdo ob’ektlari - 72ta, umumiy ovqatlanish korxonalari -80 ta. 197 ta ob’ektdan jami 30 tasida profilaktik tadbirlar olib borildi. Shundan OOSK- 10 ta, UOK - 17 ta, Savdo korxonalaridan -3 ta. Tuman dehqon bozorlarida veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi xodimlari bilan birgalikda aholini guruhli ovqatdan zaharlanishini oldini olish maqsadida kunlik nazorat ishlari olib borilib va faqat sifat sertifikati mavjud bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishlari to‘g‘risida ham targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari bozorga aholi tomonidan keltirilgan qishloq xujalik maxsulotlari sifati ustidan kunlik laboratoriya tekshiruvidan o‘tkazilgandan keyin sotuvga chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan. Joriy yilning 9 oy davomida aholi o‘rtasida oshqozon ichak kasalliklari va guruhli ovqatdan zaharlanishni oldini olish maqsadida olib borilgan tadbirlar davomida jami 1419 kg iste’moldan olindi. Go‘sht -21 kg, konserva mahsulotlari - 56.5 kg, meva sabzavotlar - 1313 kg, boshqa mahsulotlar - 132 kg. Tuman aholisi salomatligini muhofaza qilish yod yetishmasligi kasalliklarini profilaktikasi bo‘yicha olib borilgan tadbirlarda jami -51kg osh tuzida yod miqdori aniqlanmaganligi uchun iste’moldan olinib tegishli tartibda yo‘q qilindi. Aholi tomonidan 9 oy davomida jami 1 ta murojaat qayd etildi va o‘z vaqtida bartaraf qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy communal xujaligi vazirligining Loyiha smeta hujjatlarini kelishish buyicha 9 oy davomida 123 ta ariza kelib tushgan va o‘z vaqtida o‘rganilgan. Tugallangan ob’ektlarni foydalanishga topshirish buyicha 1 ta ob’ekt qabul qilingan.

Davolash profilaktika muassasalari ustidan nazorat bo‘yicha:

Tumanida davlat tasarrufidagi 18 ta va 13 ta xususiy DPMlar mavjud bo‘lib, davlat DPM bo‘limlarida 16 ta tekshirish o‘tkazilgan. 2025-yilda 9 oy davomida 11 ta DPM ish foaliyati vaqtincha rejaga ko‘ra to‘xtatildi va San Q va M 0342-17 asosida ta’mirlash, yuvish dezinfeksiya ishlari o‘tkazildi.

Aniqlangan kamchiliklar asosida ma’sul xodimlarga 55 nafar xodimlarga ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan va 126465000 sum jarima qororlari chiqarilgan va 446441000 sum undirilgan. 3 ta taqdimnoma kiritilgan.

Bo‘lim tomonidan maxallabay ishslash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 martdagи PF-33-sonli qarori asosida buyruq chiqarilib barcha xodimlar MFYga grafik asosida berkitildi. Tumanda 59 ta maxalla, 31477 ta xonodon bo‘lib biriktirilgan xodimlar tomonidan kunlik ishlari olib borilan. 2025 yil 9 oy davomida 42 ta maxalla to‘liq o‘rganilgan bo‘lib, jami o‘rganilgan xonodonlar soni 22815 tani tashkil etadi. O‘rganishlar natijasida aniqlangan kamchiliklar 175 ta, 247 ta xonadonga tavsiyalar berildi.

Laboratoriya tekshiruvlari:

2025 yil 9- oy mobaynida 18246 ta tekshirishlar o‘tkazilgan bo‘lib, talabga javob bermagan 1374 musbat natijalar aniqlangan.

Bolalar o‘rtasida parazitologik kasalliklarni oldini olish maqsadida jami 32539 ta laboratoriya tekshiruvlari o‘tkazilgan shundan 430 nafar bolalarda parazitar kasallik aniqlangan.

Kasallik aniqlangan bolalar o‘z vaqtida davolanishi va qayta tekshiruvdan o‘tishi kerakligi ota onalarga tushuntirildi.

Tumanda bezgak kasalligini oldini olish maqsadida xam profilaktik tadbirlar o‘tkazilib kelinib 3 kundan ortiq isitma qilgan 172 nafar bemorlardan qon olib tekshirilgan. Tekshirish natijasi bo‘yicha bezgak kasalligi aniqlanmagan.

Bundan tashqari bezgak bo‘yicha noxush xududlarda bo‘lib kelgan 7 nafar fuqarolar profilaktik maqsadda bezgakga qarshi tekshirilgan.

Dezinfeksiya bo‘limiga 2025 yil davomida yuqumli kasallik o‘chog‘larida yakuniy dezinfeksiya tadbirlarini o‘tkazish uchun jami 540 ta buyurtma tushgan bo‘lib ulardan 112 tasi MTMlaridan, 324 tasi maktablardan va 112 asi boshqa um.jamoalardan tushgan.

Barcha buyurtmalar buyicha dezinfeksiya ishlari to‘liq o‘tkazildi.

O‘choqlarda joriy dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirishda normativ bo‘yicha talab etiladigan 6 ta avtomaksdan 12 tasi (ya’ni ta’minoti 200%) bilan samarali ish olib borildi.

Ma’muriy choralar bo‘yicha:

2025 yil 9 oyda 102 ta davlat tassarufidagi va 2 ta tadbirkorlik sub’ektlarida nazorat o‘tkazilgan. Aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha 114 nafar ma’sullarga ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan va jarima solish to‘g‘risida qarorlar chiqarilgan. 224298520 sum miqdorida jarima summa solingan shundan 105946104 sum undirilgan.

9 oy davomida 14 ta ob’ekt ish foaliyati to‘xtatilgan. 116 nafar xodimlar davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tmaganligi uchun ishdan vaqtincha chetlatish tug‘risida raxbarlarga takliflar berilgan.

O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi Paxtachi tuman bo‘limi tomonidan 2025 yil 9 oy davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan

HISOBOTI

O‘zbekiston Mahallalari uyushmasining Paxtachi tuman bo‘limi tomonidan 2025 yilda amalga oshiriladigan ishlar hamda ularning ijrosi yuzasidan 2025 yilning **9 oy** davomida holatiga qo‘yidagi ishlar amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Mahallalari uyushmasining Paxtachi tuman bo‘limining 2025 yilga mo‘ljallangan ish rejasi ishlab chiqilgan va ushbu ish rejasi asosida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori Nizom talablaridan kelib chiqib tuman (shahar) hokimlari, Davlat kadastrlar palatasi va Uyushmaning hududiy bo‘limlari bilan bиргаликда mahallalarни tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish yuzasidan takliflar tayyorlanishi bo‘yicha berilgan topshiriq asosida tumanidagi 59 ta mahallalarни faoliyati tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi va boshqaruvi jihatidan o‘zini oqlashi yuzasidan to‘liq qayta o‘rganilib, mavjud **8 ta** shu jumladan, “**Xudojberdi**”, “**Gulshan**”, “**Istiqlol**”, “**Urganji**”, “**Nahripay**”, “**Bodoy**”, “**Tinchlik**”, “**Nurafshon**” mahallasini optimallashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlanib viloyat hokimligi huzuridagi Idoralararo komissiyasiga taqdim etildi. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025 yil 12 maydagi VII-11-67-7-0-K/25- raqamli “Viloyatdagi ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlarini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori tasdiqlandi.

Joriy yilning may-iyun oylarida 51 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga saylovi o‘tkazildi.

Mazkur saylovda 10717 nafar vakilidan 9077 nafari (saylovchining 84,7 %) ishtirot etdi. 177 nafar nomzodlar orasidan 51 nafari rais etib saylandi.

Saylangan raislarning 7 nafari (13,7 %) ayollarni, 20 nafari (40 %) birinchi marta saylanganlarni, 31 nafari (60 %) amaldagi raislarni tashkil etadi.

Ma’lumoti bo‘yicha; 42 nafari (82,4 %) oliy, 9 nafari (17,6 %) o‘rta maxsus ma’lumotga ega.

Mutaxassisligi bo‘yicha; 14 nafari (27,5%) o‘qituvchi, 7 nafari (13,8%) iqtisodchi, 1 nafari (2%) huquqshunos, 6 nafari (11,7%) agronom, 7 nafari (13,7%) muhandis, 16 nafari (31,3%) boshqa mutaxassislikni tashkil etadi.

Yoshi toifasi bo‘yicha; 1 nafari (2 %) 30 yosh, 10 nafari (19,6%) 31-40 yoshgacha, 20 nafari (39,2%) 41-50 yoshgacha, 18 nafari (35,2%) 51-60-yoshgacha, 2 nafari (4%) 60 yoshdan oshgan.

Paxtachi tumani mahallani qo‘llab-quvvatlash Kengashi tomonidan 2024 yil 24 dekabr kuni “Mahalla yettiligi” va unga mas’ul bo‘lgan tuman bo‘limi va tashkilotlar tomonidan 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida yig‘ilishi o‘tkazildi. Ushbu o‘tkazilgan Kengashi yig‘ilishida 2025 yil davomida tuman mahallalarini qo‘llab-quvvatlash kengashi yig‘ilishilarining (har oyda) tashkil etish bo‘yicha kelendar rejasiga tasdiqlangan.

Ushbu tasdiqlangan kelendar rejasiga asosan joriy yilning 1 oktyabr holatiga 9 ta Kengash yig‘ilishlari o‘tkazilgan.

Tumanda faoliyat yuritib kelayotgan “mahalla yettiligi” xodimlarini ish faoliyati tuman hokimi tomonidan tasdiqlagan “Mahalla yettiligi” ga mas’ul bo‘lgan tashkilotlar va idoralar mas’ullari ishtirotida tuzilgan ishchi guruhi tomonidan belgilangan grafik o‘rganildi. O‘rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etildi va yettilik xodimlarga mas’ullar tomonidan amaliy ko‘maklar berildi.

Tumanning “Amirobod” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida tashkil etilgan “Amirobod servis 777” MChJ mahalla servis kompaniyasi uchun yangi bino qurilib joriy yilning oktyabr oyida foydalanishga topishirildi. Hozirgi kunda “Amirobod servis 777” MChJ mahalla servis kompaniyasi tomonidan aholiga 23 turdag'i xizmatlar ko‘rsatilib kelinmoqda.

Tumandagi 51 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Mahallalarda va oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlarga sabab bo‘ladigan omillar va shart-sharoitlarni oldini olish (bartaraf etish) bo‘yicha yo‘l xaritalari ishlab chiqilib, ushbu yo‘l xarita asosida “mahalla yettiligi” xodimlari tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tumanda 51 ta mahalla mavjud bo‘lib, edo.ijro.uz tizimida 2025-yil davomida jami, 1154 ta hujjat kelib tushgan bo‘lib, shundan 918 tasi bajarilgan, 232 tasi bajarish jarayonida, 4 ta tasdiqlash jarayonida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 2025-yil davomida jami 434 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, 408 ta murojaatning ijrosi ta’milangan, 26 ta murojaat jarayonda.

Murojaatlarni ijobiy hal etish darajasi 363 ta ijobiy hal etilgan bo‘lib, 88.9% tashkil etadi, 8 ta murojaat umumiylashtirish berish orqali hal etilgan, 37 ta murojaat huquqiy maslahat berish orqali hal etilgan. 18 ta takroriy murojaat bo‘lsa, 9 ta dublikatni tashkil etadi.

Tumandagi 51 ta mahalla fuqarolar yig‘inlariga aholi tomonidan o‘z ehtiyojidan kelib chiqib tuman bo‘yicha 6992 nafar fuqarolar tomonidan ko‘mir mahsuloti uchun talabnomalar (myCoal platforma orqali) kelib tushgan, hozirgi kunda 216 ta fuqarolar ko‘mir mahsuloti bilan ta’milangan. “Mahalla yettiligi” xodimlari tomonidan aholiga talabnomalar asosida ko‘mir masulotini ko‘mir omboridan olib kelishi yuzasidan targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilib kelinmoqda.

Tumandagi **51 ta** mahalla fuqarolar yig‘inlarining “Mahalla byudjeti” mablag‘lari yil boshiga qoldiq **594612080 so‘m**, jami tushum **1095598556 so‘m**, jami xarajat **1081380280 so‘m**, qoldiq **608830384 so‘mni** tashkil etadi.

2025 yilda tasdiqlangan reja-grafikka asosan mahalla binolariga quyosh panellari o‘rnatishni tashkil etish (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 8-yanvardagi 13-sonli qarori) bo‘yicha joriy yilning 1 oktyabr holatiga 21 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarini binolariga “Mahalla byudjeti” mablag‘lari (fuqarolar tomonidan to‘langan mol-mulk va yer soliqlarining 10 foiz qismi) hisobidan o‘rnatilgan, qolgan 30 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarini binolariga grafik asosida quyosh panellari o‘rnatilishi belgilangan grafik asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

Xizmat binosiga ega bo‘lmagan Dabusqal'a mahalla fuqarolar yig‘ini uchun bino qo‘rilmoxda.

“Mahalla yettiligi” xodimlarini ishga kelishi va ketishi to‘g‘risida “Raqamli mahalla” platformasi orqali yo‘qlamadan o‘tishi uyushmaning tuman bo‘limi boshlig‘i tomonidan nazorat qilinmoqda. Joriy yilning 1 oktyabr kuni “Mahalla yettiligi” xodimlarining 69 % platforma orqali yo‘qlamadan o‘tgan.

Tuman hokimi tomonidan tasdiqlangan tumandagi mahallalarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o‘rganish va hal etish, fuqarolar bilan uchrashish grafigi asosida mahallalarda aholi bilan sayyor qabullar o‘tkazilib kelinmoqda.

Tumandagi 51 ta mahallalarning barchasida 2025-yilning iyul-avgust oylarida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” shiori ostida tuman hokimi tomonidan tasdiqlangan reja-grafik asosida aholi o‘rtasida madaniy - musiqiy tadbirlar o‘tkazildi.

Yoshlarni “Besh tashabbus olimpiadasi”ga jalb etish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida joriy yilning iyul oyida tuman sport bo‘limi bilan hamkorlikda yoshlar o‘rtasida “Mahalla ligasi” sport musobaqasi tanloving tuman bosqichi o‘tkazildi. Sport musobaqaning tuman bosqichi g‘oliblari tuman hokimligi tomonidan sovg‘alar bilan taqdirlandi.

2025 yil 12 sentyabr kuni tuman Madaniyat bo‘limi binosida mahalla raislarining malakasini oshirish uchun rejalahtirilgan o‘quv-seminari bo‘lib o‘tdi.

Mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Mahalla yettiligi” tomonidan 2025 yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan ishlar rejasini ijrosi har hafatning juma kuni mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari ishtirokida muxokama qilinib ijrosi nazorat qilinib kelinmoqda.

Mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga yuklatilgan vazifalarning ijrosini nazorat qilish bo‘yicha mahalla raislari tomonidan amalga oshirilgan kunlik ishlari yuzasidan hisobotlari (asosiy funksional vazifalari va mahallada amalga oshirilgan boshqa ishlar) uyushma tomonidan nazorat qilinmoqda.

Aholi murojaatlari bilan ishslash bo‘yicha

Aholi murojaatlari bo‘yicha Avvalo aholi murojaatlari bilan ishslash masalasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘tgan davr mobaynida tuman Xalq qabulxonasi bilan birgalikda haftaning Juma kunlarida **36** marotaba qabullar o‘tkazildi. Bundan tashqari, tuman hokimining o’rinbosarlari tomonidan sektorlarda reja grafik asosida sayyor qabullar o‘tkazilib kelinmoqda.

Qabullarda jami **2946** ta murojaatlar kelib tushgan. Shundan, **2091** tasi (**71%**) ijobiy hal etilgan. Bundan tashqari tuman hokimining ishonch telefonlari va telegram messenjerlari orqali jami **917** murojaatlar kelib tushgan bo‘lib **678** tasi (**74%**) qanoatlantirildi.

Tuman hokimligi binosida kunlik rahbarlar qabullari tashkil etilgan.